



ANALYSIS OF VIEWS RELATED TO IMAM TAHAVI'S TRANSITION TO THE HANAFI MADHHAB

Surayyo Abduvakhobova

Master's Student

International Islamic Academy of Uzbekistan

Uzbekistan, Tashkent

E-mail: abduvaxabovasurayyo@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Tahawi, madhhab, fiqh, ikhthilaf, scholars of the Hanafi madhhab, Shafi'i madhhab.

Received: 09.03.25

Accepted: 11.04.25

Published: 13.04.25

Abstract: Abu Jafar Tahavi was one of the earliest and most distinguished scholars of the Hanafi school of thought. He lived in a period when imam, madhhabs were not developed and the issues of following them were not as relevant as they are today. Until the age of twenty, Tahavi followed the Shafii madhhab and several factors contributed to his transition to the Hanafi madhhab, including the knowledge he acquired from Hanafi judges in Egypt. Within the framework of the legal principles established by Abu Hanifa and his disciples, Tahavi exercised ijtiḥad and, in some instances, expressed his own views that differed from them. Scholars have provided various explanations for his transition from the Shafii school to the Hanafi school. This article examines Tahavi's adoption of the Hanafi madhhab and the reasons behind his shift.

IMOM TAHAVIYNING HANAFIY MAZHABIGA O'TISHI BILAN BOG'LIQ QARASHLAR TAHLILI

Surayyo Abduvaxobova

Magistratura talabasi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

O'zbekiston, Toshkent

E-mail: abduvaxabovasurayyo@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Tahovi, mazhab, fiqh, ihtilof, hanafiy mazhabi ulamolari, shofei mazhabi.

Annotatsiya: Abu Ja'far Tahoviy hanafiy mazhabining ilk, yetuk ulamolaridandir. Imom, mazhablar unchalik rivojlanmagan va

unga ergashish masalalari bugungiday dolzarb bo'lgan bir davrda yashagan. Tahoviy yigirma yoshigacha shofeiyl mazhabida bo'lgan va uning hanafiylik mazhabiga o'tishiga bir qancha omillar qatorida, Misrdagi hanafiy qozilaridan olgan ilmlarining ham hissasi bo'lgan. Abu Ja'far Tahoviy, hanafiylik mazhabi ulamolari Abu Hanifa va uning shogirdlari tomonidan ishlab chiqilgan usul qoidalar doirasida ijtihod qilgan va ba'zi o'rinlarda ulardan farqli bo'lgan qarashlarini ham keltirib o'tgan.

Imom Tahoviyning shofeiyl mazhabidan, hanafiylikka o'tishi sabablarini olimlar turlicha izohlaydilar. Ushbu maqolada, Imom Tahoviyning hanafiylik mazhabiga o'tishi, va uning sabablari bilan bog'liq qarashlar o'rganiladi.

АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ, СВЯЗАННЫХ С ПЕРЕХОДОМ ИМАМА ТАХОВИЙ В ХАНАФИТСКИЙ МАЗХАБ

Сурайё Абдувахабова

Магистрант

Международная исламская академия Узбекистана

Узбекистан, Ташкент

E-mail: abduvaxabovsurayyo@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Тахови, мазхаб, фикх, ихтилоф, ученые ханфитского мазхаба, шафиитский мазхаб.

Аннотация: Абу Джафар Тахави является одним из первых и выдающихся учёных ханафитского мазхаба. Имам жил в период, когда мазхабы ещё не были столь развитыми, и вопросы их следования не были столь актуальными, как сегодня. До двадцати лет Тахави придерживался шафиитского мазхаба, однако под влиянием различных факторов, в том числе знаний, полученных от ханафитских судей в Египте, он перешёл в ханафитский мазхаб. Абу Джафар Тахави осуществлял иджтихад в рамках принципов, разработанных имамом Абу Ханифой и его учениками, однако в некоторых случаях высказывал мнения, отличающиеся от их взглядов. Учёные по-разному объясняют причины перехода имама Тахави из шафиитского мазхаба в ханафитский. В данной статье рассматривается переход имама Тахави в ханафитский мазхаб и причины, побудившие его к этому.

Kirish. Imom Tahoviy Misrda, Nil daryosi yaqinidagi “Toha” qishlog‘ida tug‘ilgan. U dastlab imom Shofeiyning shogirdlaridan bo‘lgan tog‘asi Muzaniydan, shofeiylar fiqhini o‘rganib, keyinchalik hanafiy mazhabiga o‘tishga qaror qiladi. U, Abu Hanifa, Abu Yusuf, Imom Muhammad kabi hanafiy mazhabi olimlarining asarlarini o‘rganib, dalillardan hukm chiqarishda hanafiy mazhabi metodologiyasiga tayangan xolda ish olib borgan. B’azi masalalarda mazhab imomlaridan farqli ravishda taqlid yo‘lidan ketmay, bir qancha o‘rinlarda o‘z qarashlarini dalillari bilan bayon etgan.

Imom Tahoviy buyuk ilm sohibi edi. U islom olamida, fiqh, aqida, hadis, tafsir, taboqot yo‘nalishlarda kitoblar ta’lif etgan yetuk olim sifatida ulug‘lanadi. U yashagan davrda muayyan bir mazhabga ergashish masalasi bugungiday ahamiyat kasb etmagan va shu bilan bir qatorda, kimgadir ergashishdan ko‘ra, yuzaga kelgan masala yuzasidan jiddu jaxd bilan izlanish, ijtiho qilish afzal ko‘rilgan. Shuning uchun, olimning mazhabini o‘zgartirganligi va ba’zi masalalarda o‘zi amal qilib turgan hanafiy mazhabi imomlari fikriga qo‘shilmagan xolda o‘z qarashlarini bildirganligining asosiy sabablari sifatida, u yashagan davr va ilmiy muhit kabi omillarni asos qilib keltirishimiz mumkin.

Asosiy qism. Mazhabini o‘zgartirgan olimlar tarixda ko‘plab uchraydi. Ulardan Abdulaziz ibn Imron al-Huzoiy (vaf. 234/848-y.) va ibn Iyd (vaf. 702/1302)lar Molikiylik mazhabidan shofeiylikka o‘tganlar. Muhammad ibn Abdulloh ibn Abdulhakim (vaf. 268/881) ham molikiylikdan shofeiylar mazhabiga o‘tgan va keyinchalik yana molikiylik mazhabiga qaytgan ulamolardandir. Ja’far Muhammad ibn Ahmad ibn Nasr at-Termiziy (vaf. 295/907) hanafiylikdan shofeiylikka o‘tgan. Xatib al-Bag‘dodiy (vaf. 463/1070) hanbaliylikdan shofeiylar mazhabiga o‘tgan. Ibn Foris (vaf. 395/1004) shofeiylar mazhabidan molikiylikka o‘tgan ulamolardandir[1].

Shunday ekan imom Tahoviyning yigirma yoshlariga qadar shofeiylar mazhabida bo‘lgani, imom Shofeiylar olimning shogirdi bo‘lgan tog‘asidan mazhab saboqlarini olganiga qaramay mazhabini o‘zgartirganligi, o‘sha davrda mazhabga ergashishlik tushunchasining, bugungiday ahamiyatli emasligi inobatidan hech qanday tanqidlarga sabab bo‘lmazligi kerak.

Masalaning yana bir jihati, imomning, shofeiylar mazhabi urchib turgan ilmiy muhitda bo‘laturib, hanafiylik mazhabiga o‘tishidagi omillardir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, imom Tahoviy yashagan davrda Misr o‘lkasida shofeiylar mazhabi keng tarqalgan bo‘lib, hanafiylik mazhabi esa Iroqda hukm surgan.

Abu Ja’far Tahoviyning mazhab o‘zgartirishi hususida turli ulamolar tarafidan turlicha ma’lumotlar keltirilgan. Ular quyidagilardan iboratdir.

Tahoviy, togasi Muzaniy undan g‘azabl原因 holda muomala qilganligi uchun hanafiylik mazhabiga o‘tib ketadi. She’roziyning yozishicha, imom Tahoviy shofeiylar bo‘lgan va tog‘asi Muzaniydan dars olgan. Bir kuni tog‘asi “Allohga qasamki sendan hech narsa chiqmaydi”

deb Tahoviyga jahl qiladi va bundan ranjigan Tahoviy, togʻasining dars halqasini tark etib, hanafiylik mazhabiga oʻtib ketadi. U, qozi abu Hazm va abu Jaʼfar ibn abu Imrondan dars oladi. Hatto “Muxtasar” nomli asarini yozib boʻlgach, “Togʻamni Alloh rahmat qilsin, agar u hozir tirik boʻlganida edi, ichgan qasami uchun kafforat toʻlashi kerak boʻlardi” degan rivoyatni keltiradi[2].

Sheʼroziy keltirgan bu rivoyatni, abu Abdulloh Hasan ibn Ali Saymaridan, u esa, abu Bakr Muhammad ibn Musa al-Xorazmiydan rivoyat qilgan. Aslida bu munqatiʼ rivoyat boʻlib, Xorazmiy (vaf. 403/1012) Taxoviy bilan koʻrishmagan. Shu kabi rivoyatni imom Silafi ham Quduriydan (vaf. 428/1036) rivoyat qilgan va bu rivoyat ham mursaldir. Chunki sanad jixatidan Quduriy va Tahoviy orasida katta uzulish bor[3].

Muzaniyning “Allohg qasamki sendan hech narsa chiqmaydi” qabilidagi gapidan soʻng, Tahoviy togʻasining halqasini tark etgan degan rivoyatlarni oʻrgangan Kavariy, Tahoviyning “Agar togʻam tirik boʻlsa edi ichgan qasami uchun kafforat toʻlar edi” gapidagi qasam, “Qasami lagʻv” deyiladi va bunday qasamlar uchun kafforat toʻlanmaydi degan[4]. Kishi bir narsani toʻgʻri deb gumon qilsa, lekin u notoʻgʻri boʻlib qolsa, uning aytganlari behuda qasam boʻladi va unga kafforat vojib boʻlmaydi. Ayniqsa arablarda “Qasam” lafzi koʻp ishlatiladi. Ular soʻz orasida ham “Vollohi”, “Billahi”, “Tallohi” deb, qasam ichaveradi. Bunda qasam ichish niyyati boʻlmasa ham til oʻrganib qolgan boʻladi[5]. Imom Tahoviydek olim bu kabi qasam shartlarini bilmasligi mumkin emas albatta.

Imom Tahoviy yashagan davrda, ustoz-shogird oʻrtasidagi munosabat oliy darajada boʻlgan. Ular oʻrtasida hurmat, izzat, odob, kabi tushunchalar juda yuqori turgan. Talabaning ustoziga nisbatan hurmati baland boʻlgan va oʻz navbatida ustozlar ham shogirdlariga nisbatan mehribon boʻlganlar. Ularga ilmini, yordamini, vaqtini sarflaganlar. Baʼzi oʻrinlarda shogirdlarini hatto farzandlaridan ham afzal koʻrishgan. Shunday ekan, yuqorida kelgan rivoyatning sahiliik darajasini oʻrganib xulosa qilish maqsadga muvofiq boʻladi. Diniy va axloqiy jihatdan yuksak fazilati bilan boshqalardan ajralib turuvchi talabaga, shogirdlariga nisbatan sabr va mehrli boʻlishni ustoz Shofeydan oʻrgangan Muzani kabi olimni shu soʻzlarni aytishi mumkin emasligi, rivoyatning sahih emasligi borasidagi fikrimizni yanada quvvatlantiradi[6].

Imom Kavariy, Tahoviyning hanafiylik mazhabiga oʻtganligi haqidagi rivoyatlarni keltirib, Ibn abu Imronning, qozi Bakkordan soʻng Misrda qozilik qilgani haqidagi faktlarga toʻxtaladi. Qozi Bakkor xijriy 270-yilda vafot etgan, Ibn abu Imron esa undan keyin Misr qozisi etib tayinlangan. Imom Tahoviy shu sanadan keyin abu Imronning halqalariga qatnasha boshlaganini inobatga olsak, imomni togʻasining dars halqasini tark etishi haqidagi barcha rivoyatlar xronologik jihatdan munosib kelmasligini koʻrishimiz mumkin[7].

Maʼlumot sifatida yana shuni aytish kerakki, imom Kavariyning yuqoridagi fikrlari, Ibn abu Imronning Misrga qozi sifatida kelgan yillari inobatga olingan holda aytilgan. Baʼzi

manbalarda, Ibn abu Imronni Misrga kelishi hijriy 260-yillarda bo'lgani, u davrda Misr qozisi abu Imron al-Bag'dodiy bo'lgani va Tahoviy Ibn abu Imronga yigirma yil shogirdlik qilib yurgani haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ammo imom Kavsariy uning Misrga kelishini, qozi etib tayinlangan yillarida bo'lgan degan fikrni ilgari surgan[8].

Imom Tahoviy, Muzaniyni ba'zi mushkul masalalarda Abu Hanifaning asarlariga tez-tez murojaat qilib turganini ko'rgan va shu sabab hanafiylik mazhabiga o'tgan. Abu Ya'lo al-Haliliy, "al-Irshod" nomli asarida, Muhammad ibn Ahmad ash-Shurutiyning imom Tahoviyga: "Nima uchun tog'angni mazhabidan qaytib, imom abu Hanifaning mazhabiga o'tding" degan savoliga: "Chunki men, tog'amni, abu Hanifaning kitoblariga tez-tez murojaat qilib turishini ko'rardim va shu sabab menda bu mazhabni o'rganishga nisbatan qiziqish paydo bo'ldi va shu mazhabga o'tdim." deganini aytadi[9].

Imom Tamimi ham yuqoridagi rivoyatni keltirib, imom Tahoviyning ustozidan ranjigan xolda mazhabini o'zgartirmagani, aksincha Muzaniy qanchalik ilmiy zakoli bo'lmasin, nozik masalalarda imom abu Hanifaning qarashlarini quvvatlaganiga guvoh bo'lganligi uchun, bu mazhabga o'tgan degan fikrni ilgari suradi[10].

Nazir Ahmad o'z asarida bu voqeaga izoh berarkan, "imom Tahoviy, Muzaniyning jiyani bo'lgani uchun ham uning shaxsiy kitoblaridan foydalana olgan, shu sabab uning kitoblari orasida Abu Hanifaning asarlarini ko'rgan bo'lishi mumkin" degan ma'lumotlarni keltirgan[11].

Imom Tahoviy, hanafiy va shofeiy mazhabi olimlari yozgan asarlarni va berilgan raddiyalarni o'rganib, qozi Bakkor ibn Qutaybaning Muzaniyga yozgan raddiyasini o'qigach, hanafiylik mazhabiga o'tishga qaror qiladi.

Hanafiy olimlaridan bo'lgan Bakkor ibn Qutayba uzoq yillar davomida Misr qozisi lavozimida faoliyat olib borgan. U, imom Shofeiyning imom abu Hanifani ba'zi qarashlariga qarshi yozgan javoblarini ko'rib, Muzaniydan buni yozgan o'zimi yoki imom Shofeiy deb so'raydi. Muzaniydan, bu Shofeiy degan javobni olgach, "Ar-Rad alash-Shofeiy" degan asar yozadi.

Imom Kavsariy, yuqorida Abu Ya'lo al-Haliliydan kelgan rivoyatni quyidagicha izohlaydi. "Tahoviy, ba'zi mushkul masalalar yuzasidan ustoz Muzaniydan olgan javoblaridan qoniqmas, ko'ngli to'lmas edi. Muzaniy ham bunday masalalarda Abu Hanifaning asarlariga murojaat qilgan. Tahoviydagi hanafiylik mazhabiga qiziqish shundan paydo bo'lgan va Bakkor ibn Qutaybaning yozgan raddiyasini o'qigach, hanafiy mazhabiga o'tishga qaror qilgan"[12].

Imom Tahoviy, Misrda qozilik qilgan hanafiy ulamolarining dars halqalariga qatnashib turardi va keyinchalik bu hanafiy mazhabiga o'tishga sabab bo'lgan. Imom Tahoviyning ham shofeiy ham hanafiy fiqhini o'rganganligi, unga bu mazhablarni qiyoslash

imkonini berardi. U, bu ikki mazhabni kuchli tanqid ostida solishtirgach, hanafiylik mazhabini ustun ko'rgan va uni qabul qilgan[13].

Yoqut al-Hamaviy o'zining "Majmaul Buldon" nomli asarida, Ibn Yunusdan qilingan rivoyatda imom Tahoviyning quyidagi gaplarini keltiradi: "Ilk ustozim Muzaniy bo'lgan va undan imom Shofeiyning fiqhiy qarashlarini o'rganganman. Keyinchalik Ibn abu Imron Misrga qozi etib tayinlandi va men uning darslarida qatnashib ilm oldim. Kufaliklarning mazhabi, usul qoidalarini o'zim uchun to'g'ri deb bildim va hanafiylik mazhabini qabul qildim"[14].

Ibn abu Imron yuksak ilm va fazilat sohibi edi. Fiqh va hadis halqalarini tashkil etib, unda fiqhiy masalalarni hanafiy fiqhi metodologiyasi asoslari doirasida yechish bilan bir qatorda, talabalarga boshqa mazhab qarashlarini ham bayon qilib bergan. U, Bakkor ibn Qutaybadan keyin Misrda qozilik qilgan[15]. Qozi Bakkor ham ilmi, oqil, axloqli inson bo'lgan. Imom Tahoviyning hanafiylik mazhabiga o'tishida, uning ham hissasi bo'lganligi borasida, imom Tahoviyning o'zidan ham bir qancha rivoyatlar kelgan. Bir so'z bilan aytganda bu ikki olimning ilmi, axloqi, taqvosi kabilar, Tahoviyda ularga va ularning mazhabiga nisbatan qiziqish uyg'otgan bo'lishi mumkin.

Imom Tahoviy, shofei mazhabini tushunish va unga ergashishda qiyinchiliklarga duch kelgani va hanafiy mazhabini bu borda qulay deb bilgani uchun shu mazhabni tanlagan. Ibn Hajarning "Lisonul mezon" asarida, imom Tahoviyga tog'asi kichik bir masalani qayta-qayta tushuntirishiga qaramay, Tahoviy bu masalani tushunmaganligi uchun, Muzaniy undan g'azablangani va imom Tahoviy ham tog'asiga jahl qilib, uning dars halqasini tark etgani haqidagi rivoyat keltirilgan[16].

Imom Tahoviy zakosi, masalalarni tushunishdagi ulkan zehn va qobiliyati bilan dong taratgan talabalardan bo'lgan. Shuning uchun ham bu rivoyatdagi, Muzaniyning masalani takror-takror tushuntirishiga qaramay, Tahoviy uni tushunmaganligi haqidagi gaplar haqiqatga to'g'ri kelmaydi. Qolaversa Muzaniy ham o'z talabalariga bunday masalalarni tushuntirishda sabrli va axloqli ustozlardan edi.

Imom Suyutiy ham mazhabni almashtirish masalasiga to'xtalib, "Kishining bir mazhabdan boshqa bir mazhabga o'tishiga, o'sha mazhabga ergashish va uni tushunishda qiyinchiliklarga duch kelishi ham omillardan bo'lishi mumkin" deydi. U, Tahoviyning mazhabini o'zgartirishiga ham shu omil sabab bo'gani va olimning keyinchalik islom ilmlariga oid ko'plab asarlar ta'lif etganini e'tirof etgan[17].

Ibn Hojar va Suyutiy, Shofei mazhabida bo'lgani inobatga olinsa, ularning bu boradagi qarashlari, shartli reflekslarga tayangan holda aytilgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Ularning bu gaplari, "Muzaniyning birqancha o'zida javob topa olmagan masalalarda, Abu Hanifaning asarlariga murojaat qilgani" va "Tahoviyning ba'zi nozik masalalarda Muzaniydan qoniqarli

javoblar ololmagani” kabi ma’lumotlar qarshisida, mazhablariga nisbatan refleksda aytilgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas.

Imom Tahoviy, hanafiy va shofeiylar orasida bo‘ladigan ilmiy munozaralardan ta’sirlangan holda mazhabini o‘zgartirgan. Imom Tahoviy yashagan davr, islom ilmlarining rivojlanish bosqichi yuqori darajaga chiqqan va undagi ilmiy munozaralar nafaqat ilm majlislarida balki xalq orasida ham olib borilgan davr va makonga to‘g‘ri keladi. Bu kabi munozaralar, biror masala yuzasidan bir tarafning keltirgan dalili, ikkinchi tarafnikidan quvvatli ekani bilan barchada qiziqish uyg‘otgan.

Olimning “Aqidatut Tahoviyya” asariga, ibn Muhammad ibn abul-Izz Dimashqiy tarafidan yozilgan sharhni tahqiq qilgan Shuayb Arnautiy, (vaf. 14038/2016) asarning muqaddimasida, Tahoviyning mazhabini o‘zgartirishiga sabab bo‘lgan omillar qatorida, yuqoridagidek, ilmiy munozaralarning ham ahamiyati bo‘lganini ta’kidlagan[18]. Ko‘rinib turibdiki keyingi davr ulamolari tomonidan ham imom Tahoviyning mazhabini o‘zgartirishi borasidagi qarashlar o‘rganilib, bu haqdagi ma’lumotlar keltirilgan.

Muzaniyning jiyanidan g‘azablangani va imomning shu sabab mazhabini o‘zgartirgani borasidagi rivoyatlarni tahlil qilish orqali ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Ta’limda bir ustozning shogirdidan achchiqlanishi odatiy va kunimizda uchrab turadigan holat bo‘lsa-da, Tahoviy bu davrda besh, olti yoshli bolakay emas, masalaning mohiyatini tushunib yetadigan darajada fahm farosatga ega, yigirma yoshlar atrofidagi yigit edi. Qolaversa tog‘asi Muzaniy ham, mazhabini o‘zgartirishgacha boradigan gapni shogirtiga aytadigan ustoz bo‘lmagan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, mavzu doirasidagi rivoyatlar turlicha. Ularni jamlab, imom Tahoviyning anchadan buyon o‘zini qiziqtirgan va qanoat hosil qilmagan masalalariga tog‘asidan javob ololmagani, unga yozilgan raddiyalarni o‘qigani va Muzaniyning undan achchiqlangan holda muomala qilganini, shundoq ham ingichkalanib turgan ipning uzilishi bo‘lgan deyishimiz mumkin. “Muzaniyga jahl qilish” masalasini olimning o‘zidan so‘ralganda, bu haqida umuman gapirmagan. Chunki uning mazhabini o‘zgartirishiga asosiy sabab, ikki mazhabni o‘zaro solishtirish va o‘rganishlari natijasida ulardan birini tanlash bo‘lgan.

Imom Tahoviyning mazhabini o‘zgartirishi bilan bo‘liq rivoyatlarni xoh sanadi, xoh aqliy mulohazalar bilan, yoki imom Kavsariy kabi xronologik tanqid qilish orqali faqatgina olimning shofeiylilikdan hanafiylikka o‘tishiga sabab bo‘lgan omillarni o‘rganish mumkin xalos. “Muzaniy haqiqatdan ham imom Tahoviyga g‘azab qilganmi?” yoki “Nahotki Tahoviy ustozini jahl qilishiga javoban mazhabini o‘zgartirishgacha borgan bo‘lsa?”, “Imom Tahoviy kabi olim, ergashishda qiyinchiliklar bo‘lgani uchun mazhabini almashtirishi mumkinmi?” kabi savollarga javob qidirish orqali hech narsa erishilmaydi. E’tiborni, olimning ilmiy merosini, hanafiy mazhabini qabul qilgandan keyin yozgan asarlari, qilgan ijtihodlarini o‘rganishga qaratilsa, Tahoviyni, uning fiqhiy

qarashlarini va hanafiylik mazhabi rivojiga qo'shgan hissasi naqadar ulkan bo'lganini anglash yanada osonlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. İsa Atci. Ebu Ca'fer et-Tahâvî'nin şafîi mezhebiden ayrılma ve hanefi imamlarına muhalefet nedenleri. – Konya: İslam Hukuku Araştırmaları Dergisi. 2019.- B.574
2. Abu Is'hoq ibn Ali ibn Yusuf Sheroziy. Tabaqotul fuqaho. – Bayrut: Darur roidul arobiyya, (yili nomalum) — B.142
3. İsa Atci. Ebu Ca'fer et-Tahâvî'nin şafîi mezhebiden ayrılma ve hanefi imamlarına muhalefet nedenleri. – Konya: İslam Hukuku Araştırmaları Dergisi. 2019. - B. 575
4. Muhammad Zohid ibn Hasan Kavsariy. Al-Havi fi siyratu abi Ja'far Tahoviy. – (yili nomalum) — B. 16
5. Burhonuddin Marg'inoniy. Hidoya sharhi bidoyatul mubtadi III juz. – T.: "Hilol-Nashr", 2021.- B. 14-16
6. İsa Atci. Ebu Ca'fer et-Tahâvî'nin şafîi mezhebiden ayrılma ve hanefi imamlarına muhalefet nedenleri. – Konya: İslam Hukuku Araştırmaları Dergisi. 2019. - B. 575
7. İsa Atci. Ebu Ca'fer et-Tahâvî'nin şafîi mezhebiden ayrılma ve hanefi imamlarına muhalefet nedenleri. – Konya: İslam Hukuku Araştırmaları Dergisi. 2019. - B. 576
8. Ebu Ca'fer Tahâvî. Şerhu müşkili'l-Âsâr. — Istanbul: Beka, 2021. — B. 49
9. Ebu Ca'fer Tahâvî. Şerhu müşkili'l-Âsâr. — Istanbul: Beka, 2021. — B. 45
10. Taqiyyuddin ibn Abdulqodir at-Tamimiy. Tabaqotus Saniya fi tarojumi hanafiyya, Riyod, Dorur-Rifa' 1983 50-51b.
11. İsa Atci. Ebu Ca'fer et-Tahâvî'nin şafîi mezhebiden ayrılma ve hanefi imamlarına muhalefet nedenleri. – Konya: İslam Hukuku Araştırmaları Dergisi. 2019. - B. 575
12. İsa Atci. Ebu Ca'fer et-Tahâvî'nin şafîi mezhebiden ayrılma ve hanefi imamlarına muhalefet nedenleri. – Konya: İslam Hukuku Araştırmaları Dergisi. 2019. - B. 577
13. Keskioglu Osman. Fıkıh Tarihi ve İslam Hukuku. – Ankara: Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları, 6. Baskı, 2003. — B. 119
14. İsa Atci. Ebu Ca'fer et-Tahâvî'nin şafîi mezhebiden ayrılma ve hanefi imamlarına muhalefet nedenleri. – Konya: İslam Hukuku Araştırmaları Dergisi. 2019. - B. 578
15. Keskioglu, Osman, Fıkıh Tarihi ve İslam Hukuku, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları, 6. Baskı, Ankara, 2003, s.119
16. Ibn Hojar Ahmad ibn Ali ibn Hojar abul Fazl ash-Shofeyi. Lisonul mezon. – Bayrut: Maktabatu matbuatil islamiyya, 2002.- B. 62
17. İsa Atci. Ebû Ca'fer et-Tahâvî'nin İbadetler İle İlgili Konularda Hanefi İmamlarına Muhalif Görüşleri. Doktora tezi — Ankara: 2018.
18. Abul Izz Dimashqiy. Sharhi aqiydatut Tahoviy. – Bayrut: Muassasatur risola, 1993. — B. 56